



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 178 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TASHKILOTI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Usmonov Adxamjon A'zamjonovich

“International school of finance technology and science”

instituti Menejment kafedrası mudiri, PhD

Email: adhamusmonov@gmail.com

ORCID: 0009-0004-7213-9754

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari faoliyatini tashkil etish jarayonlari boshqaruv va iqtisodiy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Yoshlar tashkilotlarining rivojlanish bosqichlari, ularning institutsional tuzilmalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni ko'rib chiqildi. Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish va tarixiy yondashuv asosida yoshlar tashkilotlarining davlat boshqaruvi tizimidagi roli hamda ularning iqtisodiy jarayonlarga qo'shayotgan hissasi ochib berildi. Maqolada shuningdek, yoshlar tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, boshqaruv, yoshlar tashkilotlari, iqtisodiy ishtirok, rivojlanish bosqichlari, samaradorlik.

Abstract: This article examines the organization of youth organizations' activities in Uzbekistan from the perspective of management and economics. It analyzes the stages of their development, institutional structures, and their role in the country's socio-economic life. Based on document analysis and a historical approach, the study highlights the importance of youth organizations within the system of public administration and their contribution to economic processes. The article also proposes recommendations for improving management mechanisms and enhancing the effectiveness of youth organizations' activities.

Key words: youth policy, management, youth organizations, economic participation, development stages, effectiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы организации деятельности молодежных организаций в Узбекистане с точки зрения управления и экономики. Анализируются этапы их развития, институциональные структуры и роль в социально-экономической жизни страны. На основе анализа нормативно-правовых документов и исторического подхода раскрывается значение молодежных организаций в системе государственного управления, а также их вклад в экономические процессы. В работе предложены рекомендации по повышению эффективности деятельности молодежных организаций и совершенствованию механизмов управления.

Ключевые слова: молодежная политика, управление, молодежные организации, экономическое участие, этапы развития, эффективность.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida yoshlar masalasi davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylandi. Chunki mamlakat aholisi tarkibida yoshlar salmog'i yuqori bo'lib, ularning ijtimoiy faolligi, intellektual salohiyati va tashabbuskorligi bevosita kelajak taraqqiyotini belgilaydi. Yoshlarning hayotga faol kirib kelishi, ularning ta'lim, kasb-hunar, siyosiy va madaniy sohalardagi ishtiroki davlatning strategik maqsadlariga erishishida hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Shu boisdan ham yoshlar tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga keng jalb etish O'zbekistonda izchil amalga oshirilmoqda.



Yoshlar tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, avvalo, milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy boshqaruv tamoyillarini uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi. O'zbekiston sharoitida bunday tashkilotlar yoshlarning manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni jamiyatning faol a'zosiga aylantiruvchi va ularning ijodiy hamda tashabbuskorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqaruvchi kuch sifatida shakllangan. Ularning faoliyati yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol bo'lishga undash hamda yangi avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan, yoshlar tashkilotlari davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarib, ikki tomon o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari rivojlanish bosqichlari mamlakatda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Har bir bosqichda ularning vazifalari, tashkiliy tuzilmasi va faoliyat yo'nalishlari zamon talablari asosida yangilanib borgan. Masalan, mustaqillikning dastlabki davrlarida yoshlarni vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va ijtimoiy faollikka yo'naltirish asosiy vazifa sifatida belgilangan edi. Keyinchalik, jamiyat taraqqiyotida yangi davr boshlangan sari yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, fan va texnologiyalar sohasida faol ishtirok ettirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.01.2022 yildagi PQ-92-son qarorida "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish" choralari belgilangan. Unda "Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi" dasturi joriy etilib, yoshlarning axborot texnologiyalariga qiziqishini oshirish va ularning kasbiy salohiyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayon yoshlarning zamonaviy kasblarga tayyorlanishini, jamiyatdagi raqamli o'zgarishlarda faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qildi.¹

Eng so'nggi tashabbuslar qatorida, 2025-yil 30-iyundagi qarorga muvofiq "Beruniy xalqaro maktabi" tashkil etildi. Ushbu maktab orqali eng iqtidorli 3 000 nafar o'quvchi, jumladan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan 300 nafari har yili dunyodagi nufuzli universitetlarda – Harvard, Yale, Columbia, Cornell – o'qishga tayyorlanadi. Bu tashabbus yoshlarning intellektual salohiyatini xalqaro miqyosda rivojlantirish va global raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Prezident tashabbusi bilan 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Bu esa davlat siyosatida yoshlarning o'rnini yanada yuksaltirish va ularni jamiyat taraqqiyotining markaziy kuchiga aylantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Bugungi kunda esa yoshlar tashkilotlari nafaqat an'anaviy ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishlarda, balki innovatsion g'oyalar, startap loyihalar, axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish sohalarida ham faoliyat yuritmoqda. Shu orqali ular yoshlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ularni global o'zgarishlarga moslashtirish va jamiyatda yangiliklarni amalga oshirishda muhim tayanchga aylanmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish, ularning rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich o'rganish va hozirgi davrda yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalarni aniqlash nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon mamlakatda yoshlar siyosatini yanada takomillashtirish, ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy hayotdagi o'rnini kuchaytirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari faoliyati va rivojlanishi masalasi ko'plab mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, mavjud ilmiy manbalar ushbu sohaning tarixiy bosqichlari va zamonaviy xususiyatlarini yoritib beradi.

O'zbekiston tajribasida yoshlar bilan ochiq muloqot o'rnatish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va demokratik jarayonlarda ishtirokini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi. Xususan, N. Kiyamov va F. Usmanova olib borgan tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, mamlakatda yoshlarga oid qonunchilik bazasi yaratildi, yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar ishlab chiqildi. Bu jarayonda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim omil sifatida namoyon bo'ldi[1].

M. Nazirovning fikricha, O'zbekiston tajribasida yoshlar bilan ochiq muloqot o'rnatish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va demokratik jarayonlarda ishtirokini kengaytirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu yondashuv yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni jamiyat hayotiga faol ijtimoiylashtirish hamda kelajak taraqqiyotida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi[2].

Biroq, yoshlar tashkilotlari faoliyatida nafaqat tashkiliy va ma'naviy jihatlar, balki moliyaviy asoslarning barqarorligi ham katta ahamiyatga ega. A. Jumaboyevning tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, so'nggi yillarda moliyaviy ta'minot mexanizmlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, hali ham bir qator muammolar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.01.2022 yildagi PQ-92-son. <https://lex.uz/docs/-5831865>



mavjud. Shu bois, bu sohada ilmiy asoslangan, amaliyotga tatbiq etiladigan yechimlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda[3].

Shuningdek, yoshlarning shaxsiy sifatleri ham alohida e'tiborga molik. E. Rajapova yoshlarning 16–30 yosh oraliq'ida shakllanadigan ijodiy salohiyat va tashabbuskorlik sifatlarini ta'kidlab, ularning maxsus bilim va tajriba yetishmasligi sababli ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirok etishda qiyinchiliklarga duch kelishini qayd etadi. Bu esa yoshlar tashkilotlari oldiga ularning malakasini oshirish, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasini qo'yadi[4].

1991–2017 yillarda respublika darajasidagi yoshlar tashkilotlarida amalga oshirilgan tuzilmaviy o'zgarishlarni tahlil qilgan S. Axmedov hukumat tomonidan belgilangan vazifalar bilan bir qatorda yoshlar muammolarini hal etishda ayrim kamchiliklar mavjud bo'lganini qayd etadi[5]. Biroq, O. Topildiyevning ta'kidlashicha, so'nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati tubdan yangilanib, natijada yoshlarning ijtimoiy faolligi hamda Vatan taqdiriga daxldorlik hissi sezilarli darajada ortgan. Bu esa avvalgi davrda kuzatilgan muammolarni bartaraf etishda muhim qadam bo'ldi[6]. Shu jarayonda E. Qaxarovning tadqiqotlari ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, u yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalarini yoshlar tashkilotlari faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Muallifning fikricha, huquqiy ongni mustahkamlash nafaqat yoshlarning ijtimoiy faolligini, balki ularning davlat va jamiyat hayotida mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishini ham ta'minlaydi[7]. Shu tariqa, ilmiy manbalar tahlili O'zbekistonda yoshlar siyosati bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini, u nafaqat ijtimoiy-siyosiy faollikni, balki huquqiy madaniyatni rivojlantirish orqali ham samarali natijalarga erishayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari faoliyati bosqichma-bosqich shakllanib, dastlab qonunchilik va tashkiliy asoslarni yaratish, keyinchalik moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, so'nggi davrlarda esa yoshlarning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy faolligini oshirish hamda ularni jamiyat hayotiga faol jalb etishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bir nechta ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, hujjatlarni tahlil qilish usuli yordamida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari hamda turli davlat dasturlari o'rganildi. Shuningdek, yoshlar tashkilotlari faoliyatining turli davrlardagi o'zgarishlarini aniqlash uchun tarixiy yondashuv va qiyosiy taqqoslash metodi qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda yoshlar tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, davlatning yoshlar siyosati faoliyatini tashkil etuvchi subyektlarning institutsional asosini 8 xronologik davrga bo'lib o'rganish mumkin (1-jadval).

Birinchi davr 1992–1996-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda O'zbekiston "Yoshlari Ittifoqi" sifatida tashkil etilgan[8]. Tashkilotning moliyalashtirish manbalari a'zolik badallari va homiylik mablag'lari hisoblangan. O'zbekiston "Yoshlari Ittifoqi" xodimlarining asosiy ish faoliyati va vazifasi a'zolik badalini yig'ish, ularning hisobini olib borish, hisob kartochkalarini yuritish kabi byurokratik vazifalar, siyosat, mafkura masalalari bilan shug'ullanib, sobiq "komsomol" tashkilotining izidan ketganligi sababli bozor iqtisodiyoti sharoitida barqarorligini ta'minlay olmagan[9].

1-jadval. O'zbekistonda Yoshlar tashkilotlari institutsional asoslarining rivojlanish tendensiyalari²

Yillar	Tashkilot nomi	Moliyaviy asosi
1992–1996	O'zbekiston Yoshlari ittifoqi	A'zolik badallaridan kelib tushgan mablag'lar hisobidan
1996–2001	"Kamolot" jamg'armasi	Muassis sifatida a'zo bo'lib kiritilgan tashkilotlarining moliyaviy yordamlari, Jamg'arma tarkibidagi sho'ba korxonalarining daromadlari hisobidan
2001–2006	"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati	Yagona soliq hisoblangan miqdorining 10 foizi hisobidan
2006–2017	"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati	Yagona soliq hisoblangan miqdorining 10 foizi hisobidan

2 Muallif tomonidan tuzildi.



2017 – h.v.	O'zbekiston Yoshlar ittifoqi	Grant, subsidiya, ijtimoiy buyurtma mablag'lari, Ittifoqning bosma nashrlaridan tushadigan mablag'lar, jismoniy va yuridik, xorijiy shaxslarning ixtiyoriy mulkiy badallari va ehsonlari hisobidan
	“Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi	Budjet mablag'lari hisobidan
2020-2022	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi	Budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan
2022-2024	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi	Budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan
2024–h.v.	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi	Budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan

Ikkinchi davr 1996–2001-yillarni o'z ichiga olib, “Kamolot” jamg'armasi sifatida tashkil etilgan. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg'armasi to'g'risida”gi PF-1425-sonli farmoniga asosan tashkil qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-maydagi “O'zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi 207-sonli qarori bilan uning ijrosini ta'minlash mustahkamlab qo'yildi. Jamg'armaning moliyaviy mablag'lari unga muassis sifatida a'zo qilib kiritilgan O'zbekiston Respublikasining bir qator vazirliklari, davlat qo'mitalari, konsernlari, korporatsiyalari, korxonalari, xo'jaliklari, tijorat banklari va jamoat tashkilotlarining moliyaviy yordamlari, Jamg'arma tarkibidagi sho'ba korxonalarining daromadlari hisobidan shakllantirilgan. Shuningdek, Jamg'armaning bo'limlari va tasarrufidagi korxonalarning Ustav doirasida faoliyat ko'rsatib olgan daromadlari soliqlardan 5 yil muddatga ozod qilinganligi ham uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan[10].

Uchinchi davr 2001–2006-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda Jamg'arma “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirilib, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanadigan bo'ldi. Bunda Harakatning dasturiy maqsadlari va ustavda ko'rsatilgan vazifalari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatini mablag' bilan ta'minlash uchun O'zbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining o'zaro qo'llab-quvvatlash to'g'risida tuziladigan shartnomalari asosida yagona soliq hisoblangan miqdorining 10 foizi kichik biznes korxonalari (savdo korxonalaridan tashqari) tomonidan harakatni rivojlantirish jamg'armasiga tushirib beriladigan bo'ldi[11].

To'rtinchi davr 2006-2017-yillarni o'z ichiga olib, bunda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatining samaradorligini oshirish, uni birinchi navbatda yoshlarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini har tomonlama himoya qilishga qodir bo'lgan ta'sirchan tashkilotga aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-486-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ma'naviy-ma'rifiy sohaga daxldor bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan yoshlar masalalarini, avvalambor ularning dolzarb muammolarini yechish, jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirishda yo'l qo'yilayotgan sovuqqonlik, beparvolik va mas'uliyatsizlik holatlarini bartaraf etish, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bu borada “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatiga suyanish va tayanish vazifasi mazkur davlat tashkilotlari faoliyatining muhim yo'nalishi deb hisoblanishi qat'iy belgilandi[12].

Shuningdek, “Kamolot”ning Dasturi va Nizomiga o'zgartirishlar kiritilib, tashkiliy tuzilmasi qayta tasdiqlandi, moddiy-texnika bazasini yaxshilashga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

Shuningdek, bu davrning yorqin voqealaridan biri sifatida Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligini keltirishimiz mumkin. Ushbu qonunning qabul qilinishi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solib, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlariga aniqlik kiritdi.

Beshinchi davr 2017-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr hisoblanib, bu davrda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining yangi bosqichi boshlandi. Chunki bu davrda yoshlar manfaatlarini himoya qilish barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ustuvor vazifasiga aylandi. Ayniqsa, 2017-yil 30-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida “Kamolot” YoH tugatilib, O'zbekiston Yoshlar ittifoqini tashkil etish taklifi berildi[13]. Shuningdek, 30-iyun Yoshlar kuni deb e'lon qilindi. Yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni



biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar va ish o'rinlari yaratish va yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida 2018-yilning 27-iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni bilan "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi[14].

2019-yilning 27-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligini tashkil etish taklifi qo'llab-quvvatlandi[15].

Ushbu taklif 2020-yilning 30-iyunida – Yoshlar kunida rasman tashkil etildi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[9]. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi va O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi tasdiqlandi.

Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4768-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining tashkiliy tuzilmalari tasdiqlandi[16].

2020-yilning 11-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlar agentligining nizomi tasdiqlandi. Ushbu nizomda Agentlik va uning hududiy bo'linmalarining maqsadi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari belgilab berildi.

Nizomga ko'ra, Agentlik O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, shuningdek, yoshlarning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi[17].

Shuningdek, Agentlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2022-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi negizida Yoshlar ishlari agentligi O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi bilan birlashtirilib, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil etildi[18]. 2 yil davomida Yoshlar siyosati va sport vazirligi tarkibida faoliyat ko'rsatgan tashkilot 2024-yilga kelib yana faoliyat samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysinuviga o'tkazildi[19].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Yoshlar tashkilotlari O'zbekistonning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ijtimoiy institut hisoblanadi. Bugungi kunga qadar takomillashish jarayonida yoshlarning orzu-umidlari, maqsadlarini amalga oshirishda asosiy tayanch tashkilotlardan biri sifatida faoliyat yurib kelgan hamda ushbu yo'nalishda zamonaviy loyihalar bilan o'z auditoriyasini kengaytirib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari yoshlarni rag'batlantirish, jamiytdagi faolligini oshirish hamda innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga mustahkam poydevor yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yoshlar tashkilotlari faoliyati mustaqillik yillaridan buyon jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu tashkilotlar faqatgina yoshlarni ijtimoiy himoya qilish yoki ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan cheklanmay, balki ularni jamiyatning faol subyekti sifatida shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va tashabbuslarini rag'batlantirishda ham muhim o'rin tutadi [20]. Tarixiy yondashuv asosida olib borilgan tahlillar yoshlar tashkilotlari turli davrlarda turlicha vazifalarni bajarganini ko'rsatdi: dastlab milliy o'zlikni anglash va yoshlarni birlashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etish, mehnat bozorida yoshlarning o'rnini mustahkamlash hamda ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalash asosiy vazifa bo'lib qoldi.

Shuningdek, empirik tahlillar natijasi ko'rsatadiki, bugungi kunda yoshlar tashkilotlari qator yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ularning faoliyatida ayrim kamchiliklar ham mavjud. Xususan, yoshlarning tashabbuslari va g'oyalari to'liq qo'llab-quvvatlanmasligi, joylarda tashkilotlar faoliyatining bir xillashuvi, tashkiliy mexanizmlarning ayrim hollarda qog'ozbozlik darajasida qolib ketishi kuzatildi. Bu esa tashkilotlarning samaradorligini oshirish uchun yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Shu sababli tadqiqot natijalariga tayanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:



Birinchidan, yoshlar tashkilotlari faoliyatini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib yanada moslashuvchan qilish, har bir mahalla va ta'lim muassasasidagi ehtiyojlardan kelib chiqib loyihalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, yoshlarning tashabbuslarini bevosita moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun grant va subsidiya tizimini kengaytirish zarur.

Uchinchidan, yoshlar yetakchilarini zamonaviy boshqaruv, kommunikatsiya va loyiha menejmenti ko'nikmalariga o'rgatish orqali tashkilotlarning institutsional salohiyatini oshirish lozim.

To'rtinchidan, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va muvaffaqiyatli amaliyotlarni milliy sharoitga moslashtirish orqali yoshlar tashkilotlari faoliyatini globallashtirish jarayonlariga uyg'unlashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tashkilotlari nafaqat yoshlarning manfaatlarini himoya qiluvchi tuzilma, balki jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata oladigan kuchli ijtimoiy institutga aylanishi zarur. Buning uchun ularning faoliyatini tizimli tarzda takomillashtirish, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kiyamov N., Usmanova F. Stages of implementation of youth policy in the period of national development of the Republic of Uzbekistan // *Journal of Critical Reviews*. – 2020. – Vol. 7, No. 13. – P. 907–911. DOI: 10.31838/jcr.07.13.168.
2. Nazirov M. Youth as a Leading Power of Uzbekistan // *The Light of Islam*. – 2020. – No. 4. – P. 118–123. DOI: 10.47980/tloi/2020/4/12.
3. Jumaboev A. Improving financing mechanisms for youth organizations in Uzbekistan // *Экономика и предпринимательство*. – 2022. – No. 11. – P. 119–122. DOI: 10.34925/eip.2021.11.136.120.
4. Rajapova E. Yoshlar tadbirkorligi va uning ijtimoiy differensial jihatlari // *UzMU xabarleri*. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – P. 110–117. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.1.6280
5. Axmedov S. O'zbekistondagi yoshlar tashkilotlari faoliyati tarixidan (1991–2017-yillar) // *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. – 2025. – Vol. 5, No. 5. – P. 134–139. DOI: 10.47390/spr1342v5i5y2025n04.
6. Topildiyev O. Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining rivojlanishi // *UzMU xabarleri*. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – P. 34–39. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.3.6808.
7. Qaxarov E. Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari // *UzMU xabarleri*. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – P. 13–17. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.1.6204.
8. Bo'ronova D. "O'zbekistonda yoshlar siyosati: bosh tamoyillar va ularning mohiyati" – T.: G'afur G'ulom NMIU, 2008. 82-b.
9. Xolmatov A. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari va texnologiyalari. *Falsafa fanlari d-ri... dis.* – T.: 2018, B54
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori. 207-son 31.05.1996. Manba: www.lex.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston yoshlarining "Kamolot" ijtimoiy harakati faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish to'g'risida"gi qarori. 240-son 30.05.2001. Manba: www.lex.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi qarori. PQ-486-son 10.10.2006. Manba: www.lex.uz
13. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 01.07.2017. www.uza.uz
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni. PF-5466-son, 27.06.2018. Manba: www.lex.uz
15. <https://president.uz/oz/lists/view/3178>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, PF-6017-son, 30.06.2020. Manba: www.lex.uz
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. PQ-4768-son, 30.06.2020. Manba: www.lex.uz
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PF-269-son, 21.12.2022. Manba: www.lex.uz
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. PF-18-son, 20.01.2024. Manba: www.lex.uz
20. Usmonov, A. (2025). Analysis of Factors Affecting the Effectiveness of Management Activities of Youth Organizations in Uzbekistan. In: Romyantseva, A., Rapaic, S., Solodovnikov, S.Y., Sintsova, E. (eds) *Finance, Economics, and Industry for Sustainable Development. ESG 2024*. Springer Proceedings in Business and Economics. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-87752-0_27



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>